



UZBEKISTAN'S LEGAL COOPERATION WITH CENTRAL ASIAN STATES IN COMBATING TERRORISM, EXTREMISM, AND DRUG TRAFFICKING

Abdullo Marufjonov

Master's Student

University of World Economy and Diplomacy

marufjonovabdullo1@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: regional security, terrorism, extremism, separatism, illicit drug trafficking, Shanghai Cooperation Organization, Regional Anti-Terrorist Structure (RATS), Central Asian Regional Information and Coordination Center (CARICC), Anti-Terrorism Center of the Commonwealth of Independent States (CIS ATC).

Received: 18.08.26

Accepted: 19.08.26

Published: 20.08.26

Abstract: This article analyzes the international legal cooperation of the Republic of Uzbekistan in the field of combating terrorism, extremism, and illicit drug trafficking within the framework of ensuring regional security in Central Asia. The main treaties and agreements adopted within the Shanghai Cooperation Organization, the Commonwealth of Independent States, and regional anti-drug institutions are examined from a legal perspective. The research findings reveal that the Republic of Uzbekistan operates simultaneously within three parallel institutional systems (RATS, CARICC, CIS ATC), which gives rise to problems such as the duplication of legal norms and ambiguity in the boundaries of authority. In order to address these problems, proposals have been put forward to develop a special agreement regulating information exchange between institutions and to improve mechanisms for implementation into national legislation.

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN TERRORIZM, EKSTREMIZM VA GIYOHVAND MODDALAR SAVDOSIGA QARSHI KURASHDA HUQUQIY HAMKORLIGI

Abdullo Marufjonov

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

marufjonovabdullo1@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: mintaqaviy xavfsizlik, terrorizm, ekstremizm, separatizm, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATS), Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot-muvofiqlashtiruv markazi (MOMAMM), Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi Aksilterror markazi (MDH ATM).

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlash doirasida Oʻzbekiston Respublikasining terrorizm, ekstremizm va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligi tahlil qilinadi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi hamda giyohvand moddalarga qarshi mintaqaviy institutlar doirasida qabul qilingan asosiy shartnoma va bitimlar huquqiy jihatdan oʻrganiladi. Tadqiqot natijasida Oʻzbekiston Respublikasi bir vaqtning oʻzida uchta parallel institutsional tizim (MATS, MOMAMM, MDH ATM) doirasida faoliyat yuritayotgani, bu esa huquqiy normalarning takrorlanishi va vakolatlar chegarasining noaniqligi kabi muammolarni keltirib chiqarishi aniqlangan. Muammolarni bartaraf etish maqsadida institutlar oʻrtasida axborot almashinuvini tartibga soluvchi maxsus bitim ishlab chiqish va milliy qonunchilikka implementatsiya mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha takliflar ilgari surilgan.

**ПРАВОВОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С ГОСУДАРСТВАМИ
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В БОРЬБЕ С ТЕРРОРИЗМОМ, ЭКСТРЕМИЗМОМ И
НЕЗАКОННЫМ ОБОРОТОМ НАРКОТИКОВ**

Абдулло Маруфжонов

Магистрант

Университета мировой экономики и дипломатии

marufjonovabdullo1@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: региональная безопасность, терроризм, экстремизм, сепаратизм, незаконный оборот наркотических средств, Шанхайская организация сотрудничества, Региональная антитеррористическая структура (РАТС), Центральноазиатский региональный информационно-координационный центр (ЦАРИКЦ), Антитеррористический центр Содружества Независимых Государств (АТЦ СНГ).

Аннотация: В данной статье анализируется международно-правовое сотрудничество Республики Узбекистан в сфере борьбы с терроризмом, экстремизмом и незаконным оборотом наркотических средств в рамках обеспечения региональной безопасности в Центральной Азии. С правовой точки зрения изучаются основные договоры и соглашения, принятые в рамках Шанхайской организации сотрудничества,

Содружества Независимых Государств, а также региональных институтов по борьбе с наркотиками. В результате исследования установлено, что Республика Узбекистан одновременно функционирует в рамках трёх параллельных институциональных систем (РАТС, ЦАРИКЦ, АТЦ СНГ), что порождает такие проблемы, как дублирование правовых норм и неопределённость границ полномочий. В целях устранения указанных проблем выдвинуты предложения по разработке специального соглашения, регулирующего обмен информацией между институтами, а также по совершенствованию механизмов имплементации в национальное законодательство.

Kirish. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda terrorizm, ekstremizm va giyohvand moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu sohadagi hamkorlik ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar hamda mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu huquqiy asoslarni tahlil qilish O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashdagi xalqaro-huquqiy ishtirokini baholash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasining Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hamda giyohvand moddalarga qarshi mintaqaviy institutlar doirasidagi huquqiy hamkorligini tahlil qilish, ushbu institutsional mexanizmlarning huquqiy maqomini qiyoslash va amaldagi tizimdagi muammolarni aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi asosiy xalqaro shartnomalarning huquqiy mazmunini ochib berish;

giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha mintaqaviy institutlarning huquqiy maqomini tahlil qilish;

mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi institutsional mexanizmlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni baholash hamda amaldagi tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Muhokama va natijalar. Mintaqaviy darajadagi birinchi maxsus huquqiy hujjat 2000-yil 21-aprelda Toshkentda imzolangan "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma hisoblanadi. Unga Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasi,

Tojikiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi tomon sifatida qo'shilgan edi [1]. Ushbu Shartnoma keyinchalik Shanxay Hamkorlik Tashkilotining tashkil topishiga huquqiy zamin bo'lib xizmat qilgan "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Shanxay konvensiyasining qabul qilinishiga asos yaratdi. Konvensiya 2001-yil 15-iyunda Shanxay shahrida O'zbekiston Respublikasi ham a'zo sifatida ishtirok etgan holda imzolandi va unda birinchi marta xalqaro-huquqiy hujjat darajasida terrorizm, separatizm va ekstremizm tushunchalarining yuridik ta'riflari mustahkamlab qo'yildi [2].

Konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq, terrorizm jamoat xavfsizligini buzish, aholini qo'rqitish yoxud davlat organlarini muayyan qarorni qabul qilish yoki qabul qilishdan tiyilishga majburlashga qaratilgan har qanday harakat sifatida, separatizm davlat hududiy yaxlitligini zo'ravonlik yo'li bilan buzishga qaratilgan har qanday harakat sifatida, ekstremizm esa konstitutsiyaviy tuzumni zo'ravonlik yo'li bilan egallash yoki o'zgartirishga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni buzishga qaratilgan harakatlar sifatida ta'riflangan.

Mazkur me'yoriy ta'riflar O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy majburiyatlarini milliy qonunchilikda amalga oshirishga xizmat qildi. Natijada ularning asosiy mazmuni 2000-yil 15-dekabrda "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda o'z aksini topdi [3]. Mazkur Konvensiyaning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda asosiy e'tibor harbiy choralar emas, balki huquqiy hamkorlikka qaratilgan. Xususan, Konvensiyaga muvofiq, ishtirokchi davlatlar terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish, ularni ekstraditsiya qilish hamda o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha hamkorlik qiladi. Shu bilan birga, mazkur jinoyatlar siyosiy jinoyat sifatida e'tirof etilmaydi. Natijada ekstraditsiya qilishni siyosiy sabablar bilan rad etish imkoniyati cheklanadi. Konvensiyaning amalga oshirish maqsadida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATS) tashkil etilgan.

Mazkur tuzilma 2002-yil 7-iyunda Sankt-Peterburg shahrida imzolangan Bitim asosida ta'sis etilgan bo'lib, uning Ijroiya qo'mitasi Toshkent shahrida joylashgan. MATS doimiy faoliyat yurituvchi organ va yuridik shaxs maqomiga ega. U shartnomalar tuzish, mol-mulkka egalik qilish, bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda sudlarda ishtirok etish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining MATSdagi ishtiroki mamlakatimizga nafaqat operativ-qidiruv axborot almashinuvida, balki mintaqaviy antiterror mashqlarini o'tkazish va jinoiy-huquqiy tergov materiallarini muvofiqlashtirishda ham teng huquqli subyekt sifatida qatnashish imkonini beradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, MATSning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan doimiy organ sifatidagi huquqiy tabiati uni boshqa mintaqaviy tashkilotlarning shunga o'xshash bo'linmalaridan

farqli o'laroq, mustaqil xalqaro-huquqiy munosabatlar subyekti darajasiga ko'taradi, bu esa mintaqaviy xavfsizlik mustahkamlanishidagi muhim yutuq hisoblanadi.

Ekstremizm va uning diniy-siyosiy ko'rinishlariga qarshi kurash sohasidagi muhim huquqiy hujjatlardan biri 2017-yil 9-iyunda Astana shahrida imzolangan Shanxay Hamkorlik Tashkilotining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi konvensiyasidir. Mazkur Konvensiyada ekstremizm tushunchasi, uning asosiy shakllari hamda ekstremistik faoliyatni moliyalashtirishga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari alohida tartibga solingan. Bu, o'z navbatida, mintaqaviy huquqiy tizimning ekstremizmga qarshi kurashish borasida terrorizmga qarshi umumiy tartibga solishdan tobora ixtisoslashib borayotganini ko'rsatadi [4].

Giyohvand moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida mintaqaviy huquqiy hamkorlikning shakllanishi 1996-yil 4-mayda Moskvada imzolangan giyohvand moddalar nazorati sohasidagi mintaqaviy hamkorlik to'g'risidagi O'zaro Anglashuv Memorandumi bilan boshlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va Turkmaniston bilan bir qatorda tomon sifatida ishtirok etgan.

Ushbu Memorandum negizida keyinchalik 2006-yil 24-iyulda Astonada imzolangan "Giyohvand moddalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot-muvofiqlashtiruv markazini (MOMAMM) tashkil etish to'g'risida"gi bitim qabul qilindi, unga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil yanvaridagi tasdiqlash to'g'risidagi farmoni asosida qo'shilgan [5].

Bitim tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot va muvofiqlashtirish markazi (MOMAMM) oddiy maslahat beruvchi tuzilma emas, balki doimiy faoliyat yurituvchi davlatlararo organ hisoblanadi. Bitimga muvofiq, markaz yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, o'z faoliyatini Bitim va ishtirokchi davlatlar qabul qilgan qarorlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, uning mol-mulki va aktivlari huquqiy himoya bilan ta'minlangan, Qozog'iston Respublikasi hududida esa soliq va boshqa majburiy yig'implardan ozod etilgan. Bunday huquqiy maqom markazga ishtirokchi davlatlarning vakolatli organlari o'rtasida axborot almashinuvi va hamkorlikni samarali muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida giyohvand moddalarga qarshi kurashishning maxsus huquqiy asosini 2004-yilda imzolangan "ShHTga a'zo davlatlarning giyohvand moddalar, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasidagi hamkorligi to'g'risida"gi bitim tashkil etadi, unga O'zbekiston Respublikasi ham qo'shilgan bo'lib, mazkur hujjat operativ-qidiruv ma'lumotlari almashinuvi, giyohvand moddalar aylanishi ustidan qo'shma nazorat va tashilish yo'llarini bloklashning huquqiy mexanizmlarini belgilaydi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining ushbu yo'nalishdagi huquqiy hamkorligi bir-birini

to'ldiruvchi ikki institutsional qatlamda - MOMAMM (mintaqaviy, faqat Markaziy Osiyo va unga tutash davlatlar doirasida) va ShHT (transkontinental, xavfsizlik tashkiloti doirasida) - parallel ravishda amalga oshirilmogda, bu esa huquqiy-institutsional dublikatsiya xavfini keltirib chiqarishi mumkin [6].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida terrorizmga qarshi kurashishning institutsional-huquqiy asosini MDH Davlat rahbarlari Kengashining 2000-yil 21-iyundagi qarori bilan tashkil etilgan MDH Aksilterror markazi tashkil etadi, uning huquqiy maqomi, vazifalari va tashkiliy asoslari esa Davlat rahbarlari Kengashining 2000-yil 1-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Nizom orqali belgilangan. O'zbekiston Respublikasi ushbu Nizomni imzolashda alohida fikr bilan qatnashgani e'tiborga molik huquqiy holat hisoblanadi; bu, xususan, Ozarbayjon Respublikasining alohida fikrida ochiq ifodalanganidek, Markazning faoliyati faqat axborot-tahliliy va maslahat-tavsiya beruvchi xarakterda bo'lishi hamda milliy suverenitet va qonunchilikka qat'iy muvofiq amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlash zaruratidan kelib chiqqan edi. Bunday huquqiy pozitsiya O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy xavfsizlik institutlaridagi ishtirokida subyektlarning suveren tengligi va ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillarini izchil himoya qilish yondashuvini yana bir karra tasdiqlaydi.[7]

MDH Aksilterror markazi (ATM) va ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATS)ning huquqiy maqomini qiyosiy tahlil qilish ular o'rtasida muhim farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Har ikkala tuzilma ham doimiy faoliyat yurituvchi organ hisoblansa-da, ularning xalqaro huquqiy maqomi bir xil emas. Xususan, MATS ta'sis hujjatlarida yuridik shaxs sifatida e'tirof etilgan va unga shartnomalar tuzish hamda mol-mulkka egalik qilish huquqi berilgan. MDH ATMning Nizomida esa bunday huquqiy maqom aniq belgilanmagan. Bundan tashqari, ayrim davlatlar, jumladan Ukraina, ATMning xalqaro huquqiy subyektligini tan olmasligini o'z e'tirozlarida alohida qayd etgan. Mazkur farqlar mintaqaviy xavfsizlik sohasida faoliyat yuritayotgan institutlarning huquqiy maqomi va vakolatlari turlicha ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli ular o'rtasidagi hamkorlikni huquqiy jihatdan muvofiqlashtirish ayrim hollarda murakkablashadi [8].

O'zbekiston Respublikasining MDH Aksilterror markazi doirasidagi hamkorligi, asosan, terrorizmga qarshi kurashishda operativ-qidiruv ma'lumotlarini almashish, yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda qo'shma qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlarida ishtirok etishga qaratilgan. Ushbu hamkorlik MDH Ichki ishlar vazirlari kengashi, Xavfsizlik organlari va maxsus xizmatlar rahbarlari kengashi hamda boshqa tarmoq organlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. MDH doirasidagi mazkur hamkorlikning huquqiy asosini 2000-yilda qabul qilingan "MDHga a'zo davlatlarning terrorizm va ekstremizmning boshqa zo'ravonlik ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha Dasturi" tashkil etadi. Mazkur Dasturga muvofiq, a'zo davlatlar

terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish sohasida milliy qonunchilikni o'zaro hamkorlikning umumiy tamoyillariga moslashtirish majburiyatini olgan.

Uchala institutsional mexanizm – MATS, MOMAMM va MDH ATM - o'rtasidagi huquqiy-institutsional munosabatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda bir vaqtning o'zida uchta parallel institutsional tizimning to'liq huquqli subyekti sifatida ishtirok etadi. Bu holat, bir tomondan, xavfsizlik sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning ko'p qirraliligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, huquqiy normalarning takrorlanishi va institutlararo vakolatlar chegarasining noaniqligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Xususan, terrorizmni moliyalashtirish maqsadida giyohvand moddalar savdosidan foydalanish holatlari bo'yicha operativ ma'lumotlar bir vaqtning o'zida ham MATSga, ham MOMAMMga, ham MDH ATMga yuborilishi mumkin, biroq ushbu uchta institut o'rtasida ma'lumotlarni o'zaro tekshirish va bartaraf etishning yagona huquqiy protsedurasi mavjud emas.

Yuqorida tahlil qilingan huquqiy hujjatlarning umumiy tizimli xususiyatlarini sarhisob qilar ekanmiz, ularning barchasi uchta umumiy huquqiy belgi bilan tavsiflanishini ta'kidlash lozim: birinchidan, tomonlarning suveren tengligi va ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga asoslanganligi; ikkinchidan, milliy qonunchilikka nisbatan xalqaro shartnoma normalarining ustuvorligini tan olish orqali amalga oshirilishi (jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida xalqaro shartnomada boshqacha qoida belgilangan taqdirda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi to'g'ridan-to'g'ri mustahkamlangan); uchinchidan, institutsional mexanizmlarning (MATS, MOMAMM) yuridik shaxs maqomiga ega mustaqil organlar sifatida shakllanib borayotganligi [9].

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan MATS, MOMAMM va MDH ATM o'rtasida axborot va operativ ma'lumotlar almashinuvini tartibga soluvchi maxsus uch tomonlama bitim ishlab chiqilishi va imzolanishi lozim, bunda terrorizmni moliyalashtirish maqsadida giyohvand moddalar savdosidan foydalanish holatlari yuzasidan majburiy xarakterdagi axborot almashinuvi tartibi hamda ma'lumotlar dublikatsiyasini bartaraf etuvchi yagona protsessual mexanizm belgilanishi zarur. Ikkinchidan, "Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari" formatida 2025-yilda qabul qilingan Xavfsizlikka tahdidlar katalogini huquqiy jihatdan majburiy kuchga ega bo'lgan mintaqaviy shartnoma darajasiga ko'tarish, uning ijrosi yuzasidan davlatlararo monitoring mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida, xususan, "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda MATS, MOMAMM va MDH ATM qarorlarini milliy huquqiy tizimga

implementatsiya qilishning aniq protsessual tartibini nazarda tutuvchi maxsus norma kiritilishi, shuningdek ushbu uch institut o'rtasidagi vakolatlar chegarasini belgilovchi tushuntirish xarakteridagi qo'shma bayonot qabul qilinishi ushbu institutlar bilan huquqiy hamkorlikning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi MDH ATM Nizomiga nisbatan bildirgan alohida fikrini rivojlantirib, ushbu Markazning maslahat-tavsiya beruvchi xarakterini yanada aniqlashtiruvchi qo'shimcha protokolni ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqishi mumkin, bu esa institutning vakolatlari milliy suverenitet doirasidan chetga chiqmasligini huquqiy jihatdan yanada mustahkamlaydi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining terrorizm, ekstremizm va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashda Markaziy Osiyo davlatlari bilan huquqiy hamkorligi ko'p qatlamli xarakterga ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va giyohvand moddalarga qarshi mintaqaviy institutlar doirasida amalga oshiriladi. MATS va MDH Aksilterror markazining huquqiy maqomini qiyosiy tahlil qilish ularning yuridik shaxs sifatidagi farqlarini, shuningdek institutsional mexanizmlar o'rtasidagi vakolatlar chegarasining aniq belgilanmaganligini ko'rsatdi. Uning yanada mustahkamlanishi, birinchi navbatda, mavjud institutlarning huquqiy maqomini aniqlashtirish, ularning vakolatlarini davlatlararo shartnomalar darajasida mustahkamlash hamda milliy qonunchilikka implementatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'minlanishi lozim. Maqolada ilgari surilgan takliflar - institutlar o'rtasida majburiy axborot almashinuv tartibini joriy etish, Xavfsizlikka tahdidlar katalogini shartnoma darajasiga ko'tarish va milliy qonunchilikka implementatsiya normalarini kiritish - mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi huquqiy hamkorlikning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Договор о сотрудничестве государств – участников Содружества Независимых Государств в борьбе с терроризмом от 4 июня 1999 г.; Соглашение о сотрудничестве государств – участников Шанхайской пятерки в борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом (Ташкент, 21 апреля 2000 г.) // Сборник международных договоров государств – участников региональной безопасности в Центральной Азии. - Ташкент, 2001. - С. 14.

2. Шанхайская конвенция о борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом от 15 июня 2001 г. Ст. 1 // Собрание законодательства Республики Узбекистан. - 2001. - № 25. - Ст. 178.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги 167-II-сон «Терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги Қонуни, 7-модда // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. - 2001. - № 1. - 1-модда.
4. Конвенция Шанхайской организации сотрудничества по противодействию экстремизму (Астана, 9 июня 2017 г.), ст. 1–2 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz>
5. Соглашение между Азербайджанской Республикой, Республикой Казахстан, Кыргызской Республикой, Российской Федерацией, Республикой Таджикистан, Туркменистаном и Республикой Узбекистан о создании Центральноазиатского регионального информационного координационного центра по борьбе с незаконным оборотом наркотических средств, психотропных веществ и их прекурсоров (Астана, 24 июля 2006 г.) // CARICC. URL: <https://caricc.org>
6. Соглашение о сотрудничестве государств – членов Шанхайской организации сотрудничества в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств, психотропных веществ и их прекурсоров (Ташкент, 2004 г.) // Наркополитика в Центральной Азии: национальные стратегии и международное сотрудничество. URL: <https://darakchi.uz/ru/206309>
7. Решение Совета глав государств Содружества Независимых Государств о создании Антитеррористического центра государств – участников Содружества Независимых Государств от 21 июня 2000 г.; Особое мнение Азербайджанской Республики к Положению об Антитеррористическом центре // ИПС «Әділет». URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/H000000190_
8. Оговорки Украины к Решению о создании Антитеррористического центра государств-участников СНГ от 21 июня 2000 г. // Исполнительный комитет СНГ. URL: <https://eccis.org/page/896/>
9. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги 167-II-сон «Терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги Қонуни, 3-модда // Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/29526>